

AHOLI TOMORQALARIDAN FOYDALANISHNI MOLIYAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH MANBALARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Odilov Umid Abduxalimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada yer fondi va undan samarali foydalanish hamda foydalanishni moliyalashtirish yuzasidan ilmiy yondoshuvlar keltirilgan. SHuningdek, aholi tomorqalaridan olinayotgan daromadlarni yanada oshirish bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. yer fondi, renta, unumdorlik, yerdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari, yer solig'i, yer bahosi, subsidiya, dotatsiya, qishloq xo'jaligi korxonalari, moliyaviy ko'mak.

SOURCES OF FINANCIAL SUPPORT AND IMPLEMENTATION MECHANISMS FOR THE USE OF POPULATION DROPLETS

Odilov Umid Abdukhalimovich

Termez University of Economics and services 2nd stage graduate

Annotation. This article presents scientific approaches to financing the Land Fund and its effective use and use. Conclusions and proposals have also been developed to further increase the income received from the population droplets.

Keywords. Land Fund, rent, productivity, indicators of land use efficiency, land tax, land valuation, subsidy, Dotasia, agricultural enterprises, financial support.

Tomorqa yer egalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda jamg'arma mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, xorijiy moliya institutlari mablag'lari va grant

mablag'laridan foydalanish shuningdek mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga subsidiyalash amaliyotini kengaytirish zamon talabi hisoblanadi. Chunki, Jahon oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra har yili dunyo bo'yicha 2-2,5 mln gektar yer maydoni turli sabablarga ko'ra ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, qaysi davlat yoki qanday mulk shakli bo'lishidan qat'i nazar davlat tomonidan moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtojlik sezadi.

Shu o'rinda Rossiyalik iqtisodchi olim V.V.Kuzetsovning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli bo'ladi: "Biz buni tushunamiz, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati bo'lmasa, nafaqat rus dehqonlari, jahondagi barcha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'z missiyasini bajara olmaydi balki, farovon davlatni shakllantirishda u shunchaki to'xtaydi"[4]. Tomorqa xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarakteridan kelib chiqib, moliyalash manbalari tashkil etiladi. Moliyalash manbalarining shaklanishi asosida tomorqa xo'jaligi sub'yektining iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlari inobatga olinadi. Ya'ni, oila daromadi miqdori, oilada yashovchilar soni, tomorqa xo'jaligining joylashgan joyi yer maydoni miqdori va unumdorlik darajasi, bozor hududiga uzoq yoki yaqin joylashganligi kabi omillar o'rganiladi. Ushbu omillarni inbatga olib davlat tomonidan iqtisodiy vositalar orqali ta'sir choralari ishlab chiqiladi. Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan beriladigan moliyaviy ko'mak kichik ishlab chiqaruvchilar uchun amal qilmaydi. Bu jarayon tomorqa xo'jaliklaridan samarali foydalanish darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida eng katta xarajat yer unumdorligini saqlab turish va meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga sarflanadi. Bu xarajatni bir yoki ikkita tomorqa egalari qoplay olmaydi. Shuning uchun tomorqa yer egalari davlat tomonidan beriladigan moliyaviy ko'makka muhtojligi ortib boradi. Xorijiy davlatlarda tomorqa xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni xususiy va aniq usulidan foydalaniladi. Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni konkret samara beruvchi iqtisodiy usuli

qo'llaniladi[5]. Tomorqa xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ijtimoiy shakllari va manbalari. Bizga ma'lumki, tijorat banklari orqali kreditlash aholi tomorqalarini moliyalashning rivojlangan shakli hisoblanadi. Chunki, mavsumiy xarakterga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi tavakkalchilikka asoslanadi. Bu jarayon ko'zda tutilmagan xarajatlarni keltirib chiqaradi, iqlim injiqliklari va eklogik omillarning ta'siri tomorqa yer egasini ortiqcha xarajat qilishga majbur qiladi. Bunday sharoitda aholi kerakli moliyaviy Mehnat staji berish Ijtimoiy himoya Davlat resursni olish uchun bankka murojaat qiladi. Yuridik shaxslar shaxsiy tomorqa yer egalariga nisbatan qarz mablag'larini jalb qilishda keng imkoniyatlarga ega.

Shaxsiy tomorqa xo'jaligi qishloq xo'jaligining eng kichik bo'g'ini bo'lganligi bois, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ayrim shakllarini qo'llash imkoniyati yo'q. Bundan ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligida yangi tashkil etilayotgan xo'jalik sub'yektlari bilan birga, tajribali yirik ishlab chiqaruvchilar faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'zlanagan samarani bermaydi. Xorijiy mamlakatlarda investitsiya faoliyatini bilvosita qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish an'anaviy usul hisoblanib, tadbirkorlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkonini beradi[3].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kreditlash qator moliyalashtirish usullari orqali amalga oshiriladi. Har bir moliyalashtirish usuli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, bir usul ikkinchi usulning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Jumladan, xalqaro bank amaliyotida qishloq xo'jaligini banklar tomonidan kreditlashning quyidagi usullari keng qo'llaniladi: qishloq xo'jaligi sub'yektlarini banklarning o'z mablag'lari evaziga kreditlash; bank kreditlari bo'yicha qisman kafolatlar taqdim qilish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga taqdim qilinayotgan kreditlar foiz stavkasini subsidiyalash; banklar bilan hamkorlik qiluvchi tegishli qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muassasalarini tashkil etish. Qishloq xo'jaligi sub'yektlari faoliyatini kreditlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Amaliyotda keng tarqalgan usullardan biri, qishloq xo'jaligi sub'yektlarini banklarning o'z mablag'lari evaziga kreditlash hisoblanadi. Ushbu holatda banklar beradigan kredit foiz stavkalari yuqoriroq bo'lib korxonalar uchun ortiqcha xarajatni keltirib chiqaradi. Bunday holatda davlat subsidiyalari qishloq xo'jaligi korxonalariga beriladi. Ushbu usulning ustun jihatlari subsidiyalarni to'lash imkoniyati kreditlash muddati oxirida amalga oshirilishi va ishlab chiqaruvchilarni nazorat qilish imkoniyatini mavjudligi bilan belgilanadi. Umuman olganda kredit subsidiyalari kredit oluvchilarining o'zlariga salbiy ta'sir o'tkazadi, ya'ni arzon kreditlarga ega bo'lish ishlab chiqaruvchilarni samarali ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishni rag'batlantirmaydi.

2. Bank kreditlari bo'yicha qisman kafolatlar taqdim qilish usuli o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar qishloq xo'jaligi korxonalarini duch kelayotgan garov mulki yetishmasligi muammosi paydo bo'lgan sharoitda foydalaniladi. Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga beriladigan davlat kafolatlari muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish hajmining pasayib ketishi, yer bozorining rivojlanmaganligi agrar sektorda garov muammosining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda davlat ma'lum maqsadda garov o'rnini o'z kafolatlari bilan almashtiradi.

3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga taqdim qilinayotgan kreditlar foiz stavkasini subsidiyalash. Kredit subsidiyalarining shakllaridan biri bu kreditning ma'lum qismini byudjetdan to'lab berishdir. Ammo bir qator xorij davlatlari bu amaliyotni tatbiq etmaydilar. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarda boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi holat deb tushunadilar[5].

4. Banklar bilan hamkorlik qiluvchi tegishli qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi davlat xususiy sherikchilik muassasalarini tashkil etish. Bu usul jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng tarqalgan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni

moliyalash usuli hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish mumkinki, muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan barcha maxsus muassasalar tarixan kooperativ sifatida davlat ko'magi yoki ishtiroki asosida shakllangan. Ushbu tashkilotning asosiy muvaffaqiyati olingan kredit bo'yicha barcha a'zolarining jamoaviy javobgarligi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi. 1998 yil 1 iyul'.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 1 aprel'.
3. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 1 aprel'.
4. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni, 2015 yil 29 dekabr'.
5. Quziyeva.N. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. –T.: «Iqtisod-moliya», 2006, 296 b. 27.
6. Altiyev A.S., yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibgasolish mexanizmlarinitakomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. 2018. –277 b.